

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI

**YOSHLAR O'RTASIDA
GIYOHVANDLIKNING
OLDINI OLISH VA
MILLAT GENOFONDINI ASRASH
MASALALARI**

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(26-fevral 2026-yil)

**ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ НАРКОМАНИИ
СРЕДИ МОЛОДЕЖИ И СОХРАНЕНИЯ
ГЕНОФОНДА НАЦИИ**

Материалы республиканской
научно-практической конференции
(26 февраля 2026 года)

**ISSUES OF PREVENTING DRUG ADDICTION
AMONG YOUTH AND PRESERVING
THE GENETIC HERITAGE OF THE NATION**

Materials of the Republican
Scientific-Practical Conference
(February 26, 2026)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI

YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKNING OLDINI OLISH
VA MILLAT GENOFONDINI ASRASH MASALALARI
Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(26-fevral 2026-yil)

ПРОБЛЕМЫ ПРОФИЛАКТИКИ НАРКОМАНИИ СРЕДИ
МОЛОДЕЖИ И СОХРАНЕНИЯ ГЕНОФОНДА НАЦИИ
Материалы республиканской научно-практической конференции
(26 февраль 2026 г.)

ISSUES OF PREVENTING DRUG ADDICTION AMONG YOUTH
AND PRESERVING THE NATION'S GENE POOL
Proceedings of the National Scientific and Practical Conference
(February 26, 2026)

Toshkent – 2026

M.M.Kaxarova,

O'zbekiston Respublikasi

Kriminologiya tadqiqot instituti ilmiy xodimi, siyosiy fanlar doktori

NARKOTIK JINOYATCHILIGINING KRIMINOLOGIK DETERMINANTLARI: IJTIMOY-DEMOGRAFIK TAHLIL

Jahon hamjamiyati oldida turgan eng global va xavfli muammolardan biri – bu giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasidir. Mazkur illat nafaqat insonlarning sog'lig'i va hayotiga tahdid soladi, balki davlatning iqtisodiy barqarorligi, milliy xavfsizligi va jamiyatning ma'naviy-axloqiy negizlariga jiddiy putur yetkazadi. Zamonaviy sharoitda narcojinoatchilik yangi bosqichga chiqib, o'zining an'anaviy chegaralarini buzib o'tmoqda. Shu bilan birga, so'nggi yillarda yangi turdagi sintetik giyohvandlik vositalari va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar paydo bo'layotganligi, ular inson omilisiz internetning ijtimoiy tarmoqlaridan foydalangan holda aholi, ayniqsa yoshlar orasida oson tarqatilayotganligi mas'ul davlat tuzilmalarining bu boradagi faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish zarurligini taqozo etmoqda[1] Xususan, davlatimiz rahbari o'z Murojaatnomasida alohida ta'kidlab o'tganidek: «Narkotik savdolari transchegaraviy va virtual xarakterga ega bo'lib bormoqda. Bu esa jinoyatlarni aniqlashda yangi usullarni qo'llashni, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni puxta egallashni talab qilmoqda»[2]. Haqiqatan ham, bugungi kunda uyushgan jinoyatchilikning rivojlanishi hamda axborot texnologiyalari (jumladan, internet va darknet tarmoqlari, kripto-aktivlar) orqali tarqalish ko'lami kengayib borayotgani bu boradagi kurash usullarini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini ko'rsatmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashishning an'anaviy, ya'ni faqatgina jazolashga asoslangan usullari kutilgan natijani bermayapti. Shu bois, jinoyatlarning ijtimoiy profilaktikasiga, xususan, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni (determinantlarni) aniqlashga ustuvor ahamiyat qaratish lozim. Buning uchun esa narcojinoatlarni sodir etuvchi shaxslarning ijtimoiy-demografik va kriminologik qiyofasini chuqur tahlil qilish, ularning jinoyat yo'liga kirishiga turtki bo'lgan omillarni o'rganish o'ta dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillardagi statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, respublikada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar dinamikasida keskin o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda. Xususan, 2020 yilda mazkur toifadagi jinoyat ishlari soni 5 707 tani tashkil etgan

bo'lsa, 2025 yil yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich 15 412 taga yetgan[3]. Ya'ni, besh yil ichida jinoyatlar soni 2,7 barobarga oshgan. Birgina 2025 yilning o'zida (2024 yilning mos davriga nisbatan) ushbu jinoyatlarni aniqlash darajasi respublika bo'yicha 25,5 foizga ko'paygan. Bu esa, bir tomondan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning tezkor-qidiruv tadbirlari samaradorligi oshganini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan jamiyatda ushbu illatning tarqalish areali kengayib borayotganidan dalolat beradi. Mamlakat miqyosida qayd etilgan jami aniqlangan jinoyatlarning qariyb teng yarmi, ya'ni 44,5 foizi (har ikkinchisi) aynan giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar hissasiga to'g'ri kelishi mazkur muammoning naqadar xavfli tus olganini tasdiqlaydi. Narkojinoyatlarning hududiy taqsimoti (geografiyasi) o'rganilganda, ularning **62 foizi** asosan to'rta yirik hudud – Toshkent shahri, Farg'ona, Toshkent va Samarqand viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu hududlardagi demografik zichlik, urbanizatsiya jarayonlari hamda tranzit yo'nalishlarining mavjudligi mazkur jinoyatlar uchun o'ziga xos «qulay» shart-sharoit yaratmoqda.

Jinoyatchilarning ijtimoiy-demografik va kriminologik portreti aniqlangan 15 412 ta narkojinoyatni sodir etgan 11 049 nafar shaxsning ijtimoiy-demografik qiyofasi tahlil qilinganda, quyidagi kriminologik xususiyatlar yaqqol namoyon bo'ladi:

- Gender xususiyatlari: Jinoiy javobgarlikka tortilganlarning mutlaq ko'pchiligini, ya'ni 10 226 nafarini erkaklar tashkil etgan bo'lsa, 823 nafar ayollarning ham ushbu jinoyatlarga aralashib qolganligi jamiyatdagi oilaviy va ma'naviy muhitning yemirilib borayotganidan signal beradi.
- Yosh toifasi va ijtimoiy maqomi: Eng tashvishli holatlardan biri bu – narkojinoyatchilikning «yosharib» borayotganidir. Jinoyatchilarning 3 744 nafarini yoshlar, 209 nafarini o'quvchi-talabalar va 112 nafarini voyaga yetmaganlar[3] tashkil etadi. Yosh avlodning noqonuniy moddiy daromad topish maqsadida (xususan, zakladka usulida tarqatish orqali) bu jinoyatga jalb qilinishi milliy genofondga to'g'ridan to'g'ri tahdididir.
- Bandlik va ijtimoiy moslashuv: Huquqbuzarlarning 1 322 nafari ishsiz fuqarolar ekanligi mazkur jinoyatning iqtisodiy determinantlari – bandlik muammosi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.
- Retsidiv jinoyatchilik: Ushbu toifadagi jinoyatchilar orasida 2 076 nafar muqaddam sudlangan shaxslarning mavjudligi penitensiar muassasalardagi tarbiyaviy ishlar va jazoni o'tab chiqqan shaxslarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish mexanizmlari yetarli darajada samara bermayotganini (retsidivning yuqoriligini) tasdiqlaydi. Shuningdek, 26 nafar chet el fuqarolarining ushlanganligi jinoyatning transmilliy xususiyatiga urg'u beradi. Kriminologik determinatsiya nuqtayi nazaridan, yoshlarning

narkojinoyatchilikka, xususan, virtual tarmoqlar orqali giyohvandlik vositalarini tarqatishga («zakladka») jalb etilishi ko'p omilli (polideterminant) jarayon hisoblanadi. Ushbu salbiy fenomenni shartli ravishda makro va mikro darajadagi quyidagi omillar guruhiga tasniflash va ilmiy tahlil qilish maqsadga muvofiqdir:

1. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

Narkojinoyatchilikning fundamental negizini iqtisodiy motivlar tashkil etadi. Yoshlar qatlamidagi iqtisodiy determinantlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- «Mo'may daromad» illyuziyasi va iste'molchilik kayfiyati: Zamonaviy jamiyatda shakllanib borayotgan agressiv iste'molchilik (konsyumerizm) madaniyati yoshlarda qisqa muddatda va jismoniy mehnat sarflamasdan boyib ketish istagini kuchaytirmoqda. Jinoiy guruhlar tomonidan internet tarmoqlarida taklif etilayotgan yuqori haq to'lanadigan «ish»lar aynan shu zaif nuqtaga zarba beradi.
- Bandlik muammosi: Barqaror daromad manbaiga ega bo'lmagan, kasbiy malakasi shakllanmagan yoki ishsiz yoshlar, shuningdek, moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelgan talabalar marginallashuvga va xufiyona iqtisodiyot takliflariga eng tez ilashuvchi qatlam hisoblanadi.

2. Tashkiliy-huquqiy omillar

Mazkur guruh omillari huquqiy ongning deformatsiyasi va virtual makondagi obyektiv shart-sharoitlar bilan bog'liq:

- Huquqiy nigilizm va javobgarlikni anglamaslik: Yoshlarning aksariyati giyohvandlik vositalarini yashirin tarqatish (kuryerlik qilish) og'ir turdagi jinoyat ekanligini, buning ortida uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazosi turganini to'liq anglab yetmaydi. Ular bu jarayonni shunchaki «buyumni manzilga yetkazish» deb qabul qiladi.
- Virtual anonimlik va jazosizlik sindromi: Transchegaraviy narkosindikatlar darknet (Darknet) va telegram-botlar orqali to'liq anonimlikni va'da qiladi. Shaxsning internetda yashirin qolish imkoniyati yoki shunday tasavvurning mavjudligi, unda jazo muqarrarligi prinsipidan qutulib qolish mumkin, degan soxta ishonchni, ya'ni jazosizlik sindromini shakllantiradi.

3. Psixologik omillar

Individual darajadagi kriminogen xavflar shaxsning ichki ruhiy kechinmalari va kognitiv xususiyatlari bilan izohlanadi:

- Ijtimoiy-psixologik begonalashuv va motivatsiyaning pastligi: Hayotda o'z o'rnini topishga qiynalayotgan, sog'lom hayotiy motivatsiya va aniq maqsadlarga ega bo'lmagan yoshlar ongida bo'shliq paydo bo'ladi. Bu bo'shliq ko'pincha deviant

xulq-atvor orqali to'ldiriladi. Ularda kundalik stress va inqirozli vaziyatlarni yengib o'tish (koping-strategiya) ko'nikmalarining sustligi jinoiy muhitga tez moslashishga olib keladi.

- O'zini tasdiqlash va tavakkalchilik (ekstrim)ga moyillik: O'smirlik va erta yoshlik davriga xos bo'lgan adrenalin izlash, qandaydir «yopiq va sirli» guruhga mansublik hissini tuyish ehtiyoji ularni narkokuryerlik yoki modda iste'moliga undaydi.

4. Ma'naviy-tarbiyaviy omillar

Jamiyat va oila institutining mikrosotsiologik ta'siri susayishi quyidagicha namoyon bo'ladi:

- Oiladagi nazoratsizlik: Ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional rishtalarning uzilishi, oiladagi nosog'lom iqlim hamda ota-onalarning o'z farzandlarining virtual hayoti (gadjetlarda nima bilan mashg'ulligi) ustidan raqamli nazorat o'rnatilmasligi.

- Axloqiy immunitetning zaiflashuvi: Yoshlar ongida halol mehnat, jamiyat oldidagi mas'uliyat kabi fundamental qadriyatlarning qadrsizlanishi. Axborot xurujlari va manipulyativ targ'ibotlarga qarshi tanqidiy fikrlash (critical thinking) qobiliyatining yetarli darajada shakllanmaganligi ularni narkotrafik tarmoqlarining oson o'ljasiga aylantirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq jinoyatlar bugungi kunda o'zining kriminologik qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu jinoyatlarning raqamlashuvi (darknet, telegram-kanallar) hamda asosiy ijrochilar sifatida yoshlar, xususan, o'quvchi va talabalarning jalb etilayotgani an'anaviy jazolash choralarining o'zi yetarli emasligini isbotlamoqda. Mazkur turdagi jinoyatchilikning o'sish dinamikasi va jinoyatchilarning ijtimoiy-demografik portreti muammoning ildizi chuqur ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va eng asosiysi, psixologik-ma'naviy bo'shliqlarga borib taqalishini ko'rsatdi. Shu bois, narkojinoyatchilikka qarshi kurashish strategiyasi faqatgina oqibatlar bilan emas, balki aniqlangan kriminogen determinantlarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks ijtimoiy profilaktikaga asoslanishi shart.

Mavjud kriminologik vaziyatni sog'lomlashtirish va jamiyatni, ayniqsa, yoshlarni ushbu illatdan asrash maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, ijtimoiy-huquqiy va raqamli profilaktika mexanizmlarini tubdan qayta ko'rib chiqish lozim. Yoshlar orasida internet orqali jinoyatga jalb etilishning («virtual jazosizlik» illyuziyasining) og'ir huquqiy oqibatlarini tushuntirishga qaratilgan yangicha formatdagi, ta'sirchan targ'ibot ishlarini olib borish zarur. Shu

bilan birga, oilalarda ota-onalarning «raqamli gigiyena» va kiber-xavfsizlik bo'yicha bilimlarini oshirish ushbu jinoyatlarning barvaqt oldini olishga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, yoshlarning psixologik himoyasini va ma'naviy-motivatsion qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish talab etiladi. Ta'lim muassasalarida o'smirlarning inqirozli vaziyatlarni yengib o'tish qobiliyatini shakllantirish muhimdir. Ularning ruhiyati va hayotga bo'lgan qarashlarini sog'lomlashtirishga yo'naltirilgan, to'g'ri hayotiy motivatsiya bera oladigan amaliy psixologik treninglar hamda yakka tartibdagi mentorlik dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, ijtimoiy-iqtisodiy va manzilli viktimologik choralarni kengaytirish zarur. Yoshlar bandligini ta'minlash, xususan, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va qonuniy daromad topishga qaratilgan ijtimoiy loyihalarni ko'paytirish kerak. Shuningdek, giyohvandlik jinoyatlarining qurboniga aylanib qolish xavfi yuqori bo'lgan qatlam (moliyaviy qiyinchilikdagi talabalar, ishsiz yoshlar, nosog'lom oila farzandlari) bilan manzilli profilaktika ishlarini olib borish tizimini takomillashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni bu balodan asrash faqatgina huquq-tartibot organlarining ishi emas. Buning uchun oiladagi muhitni sog'lomlashtirish, yoshlarning ruhiy holatiga e'tibor qaratish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish nihoyatda muhimdir. Narkotik jinoyatchiligi faqatgina huquqiy muammo emas, balki chuqur ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ildizlarga ega bo'lgan ijtimoiy kasallikdir. Ushbu jinoyatlarga qarshi kurashishda faqat jazolash choralari bilan cheklanib bo'lmaydi. Buning uchun profilaktika tizimi aynan yuqorida sanalgan xavf guruhlariga (ishsiz yoshlar, og'ir sharoitdagi ayollar, voyaga yetmaganlar) qaratilgan bo'lishi kerak. Yoshlar bandligini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va jamiyatda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish — narkotik jinoyatchiligining kriminologik determinantlarini bartaraf etishning asosiy yo'lidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo'yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta'sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-73-son Farmoni, 06.05.2024 yil.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 26.12.2025 yil.

3. Jinoyatchilik tendensiyalari va omillari davlat hisobotlari (2025 yilning 12 oyi bo'yicha): Axborot-tahliliy hujjat. – T.: O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti, 2026.

MUNDARIJA

Sh.O. Mamadaliyev , Giyohvandlik – tinchlik va kelajakga tahdid.....	4
A.A. Mavlyanov , Yuqori tafakkur madaniyatiga ega bo‘lgan ichki ishlar idoralari xodimlarini tayyorlash – yoshlar o‘rtasida avj olib ketayotgan giyohvandlik jinoyatchiligiga qarshi kurashning muhim omili.....	7
M.M. Kaxarova , Narkotik jinoyatchiligining kriminologik determinantlari: ijtimoiy-demografik tahlil.....	12
A.M. Payziyev , Jamoat xavfsizligini ta’minlashda narkotik xavflarini oldini olishning kompleks mexanizmlari.....	17
M.A. Axmedova , Ishni sudga qadar yuritishda pedagog va psiholog ishtirokining qiyosiy-huquqiy tahlili.....	22
A.B. Tursunov , Jazoni ijro etish koloniyalarida mahkumlarning giyohvandlikka qarshi immunitetini shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish.....	29
S.I. Turg‘unova , Giyohvandlikning yoshlar salomatligiga ta’siri va millat genofondini himoya qilish masalalari.....	34
A.A. Ismadiyrov, S.Q. Eronov , Yoshlar o‘rtasida alkogolizmning oldini olish va oilaviy qadiryatlarning saqlanishi.....	38
N.S. Mahmudov , Yoshlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda sun’iy intellektning ahamiyati.....	43
U.M. Ravshanov , Giyohvandlikka qarshi kurashishda milliy qonunchilikni takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlari.....	52
Д.А. Нуралиев , Распространение случаев немедицинского употребления наркотических и других сильнодействующих веществ среди молодежи.....	59
M.M. Mansurov , Psixotrop moddalar ta’sirida shakllanuvchi deviant xulq-atvor va ommaviy tartibsizliklar: ijtimoiy tahlil.....	62
E.R. Juraev , Yoshlar o‘rtasida kuchli ta’sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda muomalasiga qarshi kurashish.....	66
I.S. Nosirov , Jazoni ijro etish muassasalarida jazo o‘tayotgan giyohvand mahkuma ayollarning tasnifi.....	71
A.A. Xamidov , Yoshlar o‘rtasida giyohvandlikka qarshi kurash – millat genofondini asrashning strategik omili.....	76
N.O. Qodirova, G.N. Tursunova , Ozodlikdan mahrum etilgan voyaga yetmagan mahkumlarni giyohvandlikka qarshi yo‘naltirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash.....	85
M.A. Ибрагимова , Способы совершения и механизм слеодообразования при незаконном обороте наркотических средств с использованием сети интернет.....	90

T.X. Normetov , Giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashda milliy va xorijiy tajribaning yangicha huquqiy mexanizmlar.....	100
Ш.Ф. Усманова, Г.Ф. Гопурова Роль участников организованной группы - в сфере незаконного оборота наркотических средств.....	105
Sh.O. Raximova , Psixotrop moddalarning o'smirlar organizmiga nojo'ya ta'siri.....	109
Ш.Ф. Усманова, Б.Ф. Турсунов . Наркомания - источник преступлений среди молодёжи.....	111
Д.А. Нуралиев, Ш.Ф. Усманова . Профилактические мероприятия, направленные против употребления наркотических и других сильнодействующих веществ среди молодёжи(на примере курсантов и слушателей высших учебных заведений правоохранительных органов).....	116
J.K. Musaev . Legal and institutional mechanisms For combating drug trafficking In malaysia.....	119
Sh.N. Nimatov . Yangi tahrirdagi Konstitutsiya sharoitida inson huquqlarini ta'minlash va voyaga yetmaganlar tomonidan giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarning profilaktikasi masalalari.....	125
S.S. Sabirova, F.M. Tashev . <i>Narcotics as a multidimensional threat to society: legal, social, and security challenges in Uzbekistan</i>	129
M.S. Reyimboyeva, F.M. Tashev . Zamonaviy jamiyatda giyohvandlik fenomeni tahlili: sabablari, oqibatlar va oldini olish mexanizmlari.....	134
M.M. Matyoqubov . O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida giyohvandlikka qarshi profilaktika ishlarining samaradorligi: amaliy tajriba va takomillashtirish yo'llari mavzusida tezis.....	142
J.K. Qudratov . Narkotik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlarni tartibga solish.....	145
R.Z. Raxmatillayeva . Psixotrop moddalar muammosi: global xavf va zamonaviy yondashuvlar.....	149
E.A. Azimov . Yoshlar va giyohvandlik: millat genofondini asrashga oid yangi strategiyalar.....	151
S.R. Ochilova . Yoshlarni internet orqali radikallashtirishni oldini olish mexanizmlarining amaliy - huquqiy tahlili.....	155
Б. Исламбекова . Вопросы предотвращения наркомании среди молодежи и сохранения генофонда страны.....	160
Z. Namozova . Globallashtirish sharoitida yoshlarni giyohvandlikdan himoya qilish va milliy genofond barqarorligini ta'minlash.....	163
F.G'. Otamurodov . Yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olishda kompleks yondashuv: huquqiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlarni integratsiyalash.....	167
О'. I. Bo'riyeva . Yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olishning tashkiliy-huquqiy asoslari.....	170

I.I. Ilhomov. Yoshlar o'rtasida giyohvandlikning oldini olish va millat genofondini asrash: xalqaro va milliy huquqiy mexanizmlarining qiyosiy tahlili.....	173
M.M. Хакимова. Предотвращение распространения сильнодействующих наркотических препаратов среди молодежи.....	181
K.A. Xushvaqtoy. Yoshlar o'rtasida huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish.....	188
Ш. Аллаберганова. Вопросы предотвращения наркомании среди молодежи и сохранения генофонда страны.....	193
M.T. Tojiboyev, R.H. Izzatullayeva. Talaba yoshlar orasida psixotrop dorilarning tarqalishi: muammo va uning dolzarbligi.....	196
R.H. Muxiddinova, Voyaga yetmaganlar o'rtasida psixotrop moddalar tarqalishi: muammo, sabablar va profilaktik choralari.....	199
S.A. Saidova. Talabalar o'rtasida giyohvandlik va psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy muomalasi bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasining nazariy-huquqiy tahlili.....	201
O. Сулайманов. Современные тенденции и вызовы мировой наркоситуации.....	206
D.A. Yusubov. Yoshlar o'rtasida giyohvandlik haqida ba'zi fikrlar.....	212
N.B. Nishanbayeva. Giyohvandlik: Ruhiy-ma'naviy va jismoniy oqibatlar.	214
M.R. Saidov. Ichki ishlar organlarining giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar profilaktikasini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy asoslari.....	216

YOSHLAR O'RTASIDA GIYOHVANDLIKNING OLDINI OLIH
VA MILLAT GENOFONDINI ASRASH MASALALARI
Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
(26-fevral 2026-yil)

Muharrirlar:
I.V. Soloxina, O.T. Norqulov

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,
100197, Toshkent sh., Intizor ko'chasi, 68.